

**TALABALARDA PSIXOLOGIK BILIMLARNI ANGLASH VA KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANISHIDA IDROK QILISHNING O'ZIGA XOSLIGI (ANGLASH VA O'ZINI O'ZI ANGLASH)**

*Xodjayeva Saida Qodirovna  
Andijon mediata'lim texnikumi Maxsus fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi*

**ВОСПРИЯТИЕ ВОСПРИЯТИЯ В ПОНИМАНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ И РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ (ПОНЯТИЕ И САМОПОНЯТИЕ)**

*Ходжаева Саида Кадыровна  
Старший преподаватель кафедры специальных наук Андижанский медиаобразовательный техникум*

**THE PERCEPTION OF PERCEPTION IN THE UNDERSTANDING OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE AND THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN STUDENTS (UNDERSTANDING AND SELF-CONCEPTION)**

*Khodjayeva Saida Kadyrovna  
Senior teacher of the Department of Psychology of Special Sciences, Andijan Media Education College  
<https://orcid.org/0009-0002-6162-0732>*

*Annotatsiya: Maqolada talabalarda kreativ tafakkurni shakllanishida psixologik bilimlarning o'rni, psixologik bilimlarni anglash va kreativ tafakkurni rivojlanishida idrok qilishning o'ziga xosligi yoritib berilgan. Kreativ tafakkurni rivojlantirishga ta'sir etuvchi psixologik omillar ifodalangan.*

*Аннотация: В статье раскрывается роль психологических знаний в формировании творческого мышления у студентов, понимание психологических знаний и своеобразие восприятия в развитии творческого мышления. Выражены психологические факторы, влияющие на развитие творческого мышления.*

*Abstract: The role of psychological knowledge in the formation of creative thinking in students, the understanding of psychological knowledge and the uniqueness of perception in the development of creative thinking are explained in the article. Psychological factors affecting the development of creative thinking are expressed.*

*Kalit so'zlar: Idrokning ahamiyati, emotsional - kognitiv – borliq, motivatsion - irodaviy - harakatlar, o'z-o'zini anglash, Emotsional baholash ya'ni munosabat, o'z-o'zini boshqarish, irodaviy boshqarish.*

*Ключевые слова: Значимость восприятия, эмоционально-познавательное-существование, мотивационно-произвольные действия, самосознание, Эмоциональная оценка, т.е. установка, самоконтроль, волевой контроль.*

*Key words: The importance of perception, emotional - cognitive - existence, motivational - voluntary - actions, self-awareness, Emotional evaluation, i.e. attitude, self-control, volitional control.*

Kirish. Butun psixik hayotimizda, faoliyatimizning hamma sohalari va xususan o'qish - o'qitishda idrokning ahamiyati kattadir. SHuning uchun hamisha idrokning sifatiga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi. Psixik hayotimizning butun boyligi sezgi va idroklarimiz orqali hosil bo'lgan mazmundan voqe bo'ladi. Psixologlarning fikricha, inson nimaniki idrok qilsa, uni figura va fonda idrok qiladi. Idrokning sifat atrof-tevarakdagi sharoitni to'g'ri va tez tushunib olish, inson faoliyatining har xil turlari – o'yin, mehnat, sport mashqi va musobaqalari uchun ahamiyati kattadir. Xususan, ta'lim-tarbiya ishida idrokning sifatini e'tiborga olish katta ahamiyatga egadir.

O'qituvchi bergan har bir o'quv materialini o'zlashtirish uchun talaba avvalo uni idrok qilmog'i-ko'rmog'i, eshitmog'i kerak.

Talaba idrok qilgan narsasini esda qoldiradi, tushunib oladi. Talaba o'quv materialini qanchalik tez,

to'la, ravshan va aniq, idrok qilsa, u bu materialni shunchalik yengil va to'g'ri tushunib, fahmlab oladi, shunchalik oson, to'la va mustahkam bilib oladi. SHuning uchun o'qish o'qitishda idrokning sifatiga oid hususiyatlarni e'tiborga olish, o'quv materialini eng yaxshi usulda idrok qilishni ta'min etish lozim, o'qish-o'qitish ishini shunday tashkil etish kerakki, materialni tez, to'la, ravshan va aniq idrok qila oladigan bo'lsin. Buning uchun idrokning sifati qanday sabablarga bog'liq ekanini bilishi kerak.

Bir qarashda oddiyroq tuyulgan idrok ham inson bilimlari, tushunuvchanligi va faolligi bilan bog'liq psixologik jarayon bo'lib, u aslida shaxsiy tajribamizning birlamchi asosi va bazasidir.

Demak, «munosabat» kategoriyasi xarakterni tushuntirishda asosiy hisoblanadi. B.F. Lomovning ta'biricha, xarakter shaxs ichki dunyosining asosini tashkil etadi va uni o'rganish katta ahamiyatga ega. Munosabatlarning xarakterdagi o'rni xususida fikrlar ekan, V.S.Merlin ularning mazmunida ikki komponentni ajaratadi:

a) emotsional - kognitiv - borliq muhitning turli tomonlarini shaxs qanday emotsional his qilishi va o'zida shu olamning emotsional manzarasini yaratishi;

b) motivatsion - irodaviy - ma'lum harakatlar va xulqni amalga oshirishga undovchi kuchlar. Demak, bizning munosabatlarimiz ma'lum ma'no va mazmun kasb etgan munosabatlar bo'lib, ularning har birida bizning hissiy kechinmalarimiz aks etadi va xarakterimiz namoyon bo'ladi.

Inson ob'ektiv voqelikni aks ettirish bilan bir qatorda o'zi haqida fikr yuritish, ruhida kechayotgan jarayonlarni tahlil qilish, xatti-harakatlarini nazariy tahlil qilishdek qobiliyatga ham ega. O'zini o'zgalardan ajrata bilish, o'ziga munosabat, imkoniyatlarini baholash o'z-o'zini anglash sifatida namoyon bo'ladi.

O'z-o'zini anglashda o'zini bilish, baholash va tartibga solishdek unsurlarni ajratish mumkin. Bu unsurlar o'z-o'zini anglashning sohibiga-sub'ektiga ko'ra farqlanuvchi muayyan shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatga xosdir.

Ilmiy texnika taraqqiyoti va jamiyatimiz hayotida yuz berayotgan tub yangiliklar shuningdek, o'quv axborotlarining muttasil ravishda ortib borayotganligini ta'lim jarayoniga yangi munosabatda bo'lishni taqozo etmoqda.

Bizo'z tadqiqotimizni Andijon davlat universiteti 1-3 bosqich talabalarining psixologik savodxonligini aniqlash va ularning mazmun mohiyatini anglanganlik darajasini o'rganish maqsadida psixologik terminlarning izohi bo'yicha testlar, sotsiologik tadqiqot o'tkazdik. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki talaba yoshlarning bilim doirasida umummpsihologik tushunchalarni mazmun mohiyatini tushunish qiyin ekanligi (emotsiya, xissiyot, irodaviy akt, empatiya, kreativ tafakkur va x.k) uning mohiyati, tamoyillari, shakllari va bilish jarayonlarining mazmuni haqida dastlabki tasavvurlar mavjud, ya'ni umummpsihologik bilimdonlikni shakllanganlik darajasi 3 kurs talabalarida taxminan 70-75% tashkil etgan bo'lsa 2 kurs talabalarida 55-60 %ni, 1 kurs talabalrida esa 35-45 %ni psixologiya fani haqidagi tasavvurlari 18-20% tashkil qilgan holos.

Nihoyat yuqoridagilarga aloqador yana bir jihat borki, bu yoshlarning psixologik savodxonligi va uni oshirish masalasidir. Psixologik savodxonlik tushunchasining asl mohiyati – bu shaxsning o'zi, uning xissiy kechinmalari munosabatlari majmui bilan jamiyat va undagi shaxslararo munosabatlar tizimi, kadriyatlar, ma'naviyat to'g'risidagi to'la tasavvurlaridir.

Psixologik nuqtai nazardan, bilimdon odam tasavvurlarida ob'ektivlik va holislik sifatlari mavjudkim, shu tufayli u o'z «meni» ni mukammalashtirish va o'zgalar bilan to'g'ri munosabatlar o'rnatish qobiliyatiga ega. To'g'ri, hayot undagi vaziyatlar, xodisalar, shaxsiy tajriba shaxsni ma'lum yo'nalishda rivojlanishiga sabab hisoblanib uning ma'lum ijtimoiy tasavvurlari tizimini xosil kiladi. Lekin stixiyali, tajribadagi xatoliklar va yutuqlar evaziga orttirilgan psixologik savodxonlik aniq maksadga yo'naltirilgan, shaxs va jamiyat manfaatlariga aniq tahlil va ezgu niyatlarga tayangan bilimdonlikdan farq kiladi.

Psixologik savodxonlik yana shuning uchun ham zarurki ko'pincha inson o'z iqtidori va imkoniyati darajasida aniq tasavvur qilmaydi, o'liy o'quv yurti yoki kasb tanlashda o'zgalar ta'siriga berilib, muayyan xatolikka yo'l qo'yadi. Buning oqibatida nafaqat o'sha shaxs aziyat chekadi, balki jamiyatga zarar keltiradi. Xar bir shaxs o'zini o'zi tarbiyalashning malakalariga ega bo'lishi, autotrening elementlaridan boxabar bo'lishi, o'zgalar bilan muloqotga tayyorligi, treninglarda ko'nikmalar xosil qilishi, «o'zgacha bo'la olish» san'ati, uning ruxiy barkamolligiga zaminligi tufayli jamiyatda sog'lom insoniy munosabatlar ustun turadi. Bilimdon kishilar o'zining bilim tizimidan ham unumli, ham samarali foydalanish imkoniyatiga egadirlar. Zero, ba'zan bilimlar doirasi kengligi sababli dimog'dorlik illati yuzaga kelishi, saloxiyati bo'yicha o'z o'rnini topa olmaslik, o'z-o'zini quyi baholash barkamol shaxs

taraqqiyoti uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Demak, ijtimoiy psixologik bilimdonlikdan ko'zlangan asosiy maqsad – yoshlarni bo'lg'usi ijtimoiy faoliyatga psixologik jixatdan tayyorlash, ularda insoniy fazilatlarini shakllantirish, kommunikativ bilimdonlik va shaxslararo mulokotning murakkab shakllariga muvofiqlashuv jarayonlarini tezlashtirishdir. Bugungi talabalar ertangi kunning bunyodkorlari, vatanparvarlari, mexnatsevar insonlar, jamoalarni boshqaruvchi ziyolilar bo'lib yetishishi kerakligini hisobga olsak, ulardan bilimdonlik darajasi va ko'lamining keng bo'lishining ahamiyati o'ziga xosdir.

Yuksak, teran va atroflicha fikr yurita oladigan va ijtimoiy faoliyatidan el yurtga naf yetkaza oladigan insonlargina komolotga erishishi mumkin. Bu jarayonda ijtimoiy psixologiya o'zining faol metodlari va konuniyatlari bilan o'z xissasini qo'shadi.

Jamiyatimizning bugungi ijtimoiy xayotida ruy berayotgan tub isloxlarning mohiyati xakida fikr yuritilar ekan, eng noyob milliy kadriyatlarni yosh avlod ruxiga va ma'naviy dunyokarashiga singdirish va undan umuminsoniy manfaatlar yo'lida foydalanishning yagona yo'llaridan biri-bu ularda bilimdonlikni yetarli darajada shakllantirishdir.

«Dunyoning demokratik kadriyatlaridan baxramand bo'lishda aholining psixologik bilimdonligi muhim ahamiyat kasb etmokda». Faqat bilimli, ma'rifatli jamiyatgina demokratik taraqqiyotning barcha afzalliklarini qadrlay olishini, va aksincha bilimi yetarli bo'lmagan, olim odamlar avtoritarizm va totalitar tuzumini ma'qul ko'rishini hayotning o'zi ishonarli tarzda isbotlamokda (6)

Davlatimizda mustaqillik kulga kiritilib, xukukiy va demokratik isloxtlar amalga oshirilishida kilinayotgan ijtimoiy sa'i-xarakatlarning ne'mati shundaki, mustakillik mamlakatimiz aholisining bilim doirasini kengaytirdi. O'z tariximiz, tilimiz, milliy qadriyatlarimiz, madaniy merosimiz durdonalarini o'rganishga ochilgan yo'l xalq tafakkurining rivojlanishi, uning o'tmishi, buguni va ertasi xakida anik tasavvurlarga ega bo'lishiga imkon yaratadi, yoshlarni mustakil fikr yuritishga o'rgatadi. Talabalik davri inson shaxsining kamol topishida aloxida o'rin egallab, u inson rivojlanishining muhim bosqichi hisoblanadi. SHu bois talabalik davrida ahamiyatga molik psixologik, fiziologik o'zgarishlar ro'y beradi. Mazkur o'zgarishlar negizida talaba shaxsida kattalik xissi yuzaga keladi va uni shaxs sifatida shakllanishiga, jamiyat xayotiga kirib kelish jarayonining tezlashishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa bu davrda xulq-atvorning barcha soxalarida kattalar ta'siridan qutulish, mustaqil bo'lishga intilish asosiy o'rinni egallaydi. Aynan mustaqillik ta'sirida o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini baholash va shaxs sifatida kamolga yetish tarkib topadi. Mazkur jarayonni yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillarni o'rganish muhim sanaladi. Bu borada psixolog olimlar tomonidan bir qator fikrlar keltirib o'tiladi. Jumladan, xorij psixologlari o'z-o'zini anglash muammosiga amaliy jixatdan e'tibor beradilar. Psixolog U.Djems, K.Rodjers, M.Rozenberg kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida o'z-o'zini anglash shaxsning o'zi xaqidagi tasavvurlarining turli shakllari bilan bog'liqligi ajratib ko'rsatiladi. O'z-o'zini anglash xususiyatlarini o'rganishda shaxsiy jixatdan yondashuvga ko'ra “men” siymosi o'z-o'zini baholashning o'zgarishi va motivatsion doira bilan bog'liqligi ko'rsatib o'tiladi. O'z-o'zini anglash muammosini psixologik jarayon ifatidagi mohiyatini aniqlashda shaxs ivojlanishi jarayonida yuzaga kelgan sabablarni adqiq qilishdan boshlanadi. Psixolog .L.Rubinshteynning ta'kidlashicha shaxsni psixologik jixatdan o'rganishda o'z-o'zini anglash shaxsning men siymosi bilan bog'liqligi masalasi uximdir. SHaxs sub'ekt sifatida o'z xulq-atvori, atti-xarakati, ish faoliyatining ijodkori va muayyan jixatdan javobgarlikni o'z bo'yniga ola bilishi bilan xarakterlanadi. S.L.Rubinshteyn o'zini anglashning rivojlanish manbai va xarakatlantiruvchi kuchi sifatida shaxsdagi mustaqillikni o'sib borishi bilan izoxlaydi. Uning ta'kidlashicha ong o'z-o'zini anglashdan kelib chiqmaydi, balki o'z-o'zini anglash shaxs ongingning taraqqiyoti davomida yuzaga keladi. SHunga muvofiq o'z-o'zini anglash tuzilishiga ko'ra quyidagi tamoyillarga ajratiladi:

1. Bilish ya'ni o'z-o'zini anglash;
2. Emotsional baholash ya'ni munosabat;
3. Irodaviy boshqaruv (o'z-o'zini boshqarish) tomonlarining o'zaro birligidan iborat.

Yuqoridagi tamoyillar shaxsda o'z-o'zini anglashda asosiy tarkibiy qismlarini tashkil qilib, u rivojlanishning muhim pog'onalarini ko'rsatadi. Ma'lumki o'z-o'zini anglash “Men” ta'sirida yuzaga keladi. “Men” kontseptsiyasi bu individning o'z xatti-xarakatlariga bo'lgan munosabati va o'z oldiga qo'ygan ko'rsatmalarga o'zining munosabati va o'zini baholashi sifatida ko'rsatiladi. Psixolog Dubrovin tomonidan talabalaridagi “Men” kontseptsiyasi uch ko'rinishga ega ekanligi ko'rsatiladi: O'tgan men

– o'tmishdagi men uning emotsional holatini ko'rsatib beradi. Xozirdagi men – xar doim o'z axloqiy ongini va xatti-xarakatlarini anglab boradi. Kelajakdagi men – bunda kelajakdagi men obrazi tasavvur qilinadi va o'zlariga nisbatan taqlid qilish kuchliligi bilan belgilanadi. A.U.Obozn'y va V.A.Koterskiylar tomonidan 1- va – kurs talabalarida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ulardagi talabchanlik darajasi, vazifaning real bajarilishi tashqi insonlar bahosiga emas, balki talabaning o'z-o'zini baholash darajasiga bog'liqdir. Ye.I.Savonko tadqiqotlarida shaxsning o'z-o'zini baholashi, o'z-o'zini anglashi va shaxsning yo'nalganligi o'rtasidagi munosabat yoshga bog'liqligi ko'rsatiladi. SHuningdek ayrim psixolog olimlar tomonidan o'z-o'zini anglash shaxsdagi irodaviy sifatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkinligi g'oyasi ilgari suriladi. SHaxsdagi o'z-o'zini anglash muammosi irodaviy sifatlar bilan bog'liq bo'ladi. Bola irodasining salbiy tomonlaridan biri o'ziga nisbatan ishonchning yo'qligi bilan belgilanadi. F.I.Ivanchenko tomonidan o'tkazilgan tekshirishlarda ko'rsatilishicha o'qish sharoitida talabalardagi o'ziga nisbatan ishonchni anglamaslik holatlari asosan quyidagi sabablar orqali yuzaga keladi;

1. Izchillik tamoyiliga rioya qilmaslik tufayli;
2. Talabalarga kuchlari yetmaydigan ortiqcha talab qo'yish orqali;
3. Ayrim pedagoglar va ota-onalar shuning bilan birga tengdoshlarining kuchiga, xotira, qobiliyatlar va faxm-farosatiga ishonchsizlik bilan qarash natijasida;

4. Talabalarni yomon baxo olganliklari uchun qo'rqitish va jazolash;

O'z-o'zini anglash muammosini tadqiq qilgan psixolog T.V.Dragunov ta'biricha bu quyidagi xususiyatlar orqali amalga oshirilishini belgilab beradi;

- atrofdagi insonlar tomonidan bo'layotgan ta'sirlar orqali talaba o'zidagi ijtimoiy psixologik ta'sirlar natijasida o'zgarishlarni anglash muhim hisoblanadi;

- talaba xulq-atvoriga xos xatti-xarakatlar, normalar bir tizimga solingan emasligi;
- talaba uchun ideal bo'lgan insonni tanlay bilish va uning xususiyatlarini o'ziga singdira olish;
- talabalarda orzu qilish hamda fantaziya yaxshi rivojlangan bo'lib, ular uchun real voqelikdagi ishni bajarishdan ko'ra, o'sha narsa xaqida fikr yuritish qiziqarlidir;

- kattalar xulq-atvorini taxlil qilgan holda o'zidagi xulq-atvor normalarini taxlil qilish muhimdir.

Talabalik davrida o'z-o'zini anglashni shakllanishining xarakterli belgilaridan biri talaba o'zini faoliyatidan qoniqish xissini tuya boshlaydi va o'zini ziyoli deb hisoblay boshlaydi. Mustaqillikka intilish orqali ularda kattalik xissi rivojlana boradi. Ularda bu “xaqiqiy erkak” va “ideal ayol” kabilar bilan belgilanib, ular endi real ijtimoiy muxitga intilishadi. Lekin bu davrda o'z-o'zini anglashi faqatgina ijobiy bo'lib qolmasdan balki uning salbiy jixatlari ham mavjud. Salbiy jixatining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida ma'lum bir shaxsni o'ziga ideal qilib olishi, uning xatolarini ko'rmasligi, odamovi bo'lib qolishlari va xokazolar.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan shuni ko'rish mumkinki, ayrim talabalar o'z-o'zini anglash negizida yuzaga keladigan psixologik mexanizmlarni noto'g'ri talqin qiladilar va buning natijasida ularning xulq-atvorida salbiy xususiyatlar tarkib topadi. Bu esa talabani shaxs sifatida shakllanishiga to'sqinlik qiladi va faoliyatlarini izdan chiqishiga sabab bo'ladi. Mazkur fikrlardan ko'rinadiki o'z-o'zini anglash murakkab psixologik fenomen bo'lib, shaxs shakllanishini ta'minlovchi omillardan sanaladi. SHu bois talabalarda o'z-o'zini anglashni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar ya'ni o'quv faoliyati, ijtimoiy muxit va ish faoliyati, atrofdagi insonlar va ular tomonidan beriladigan bahoning ob'ektiv bo'lishiga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Ayniqsa shaxsda o'z-o'ziga bo'lgan ishonch, e'tiqod va shaxs xususiyatlarini rivojlantirish lozim

Metodika.Biz o'tkazgan tajribalarda «Rubin figuralari»dan foydalandik. Quyidagi o'tkazilgan tajribalar va ularning natijalarining tahlillari haqida to'xtilib o'tamiz.

Natijalar.Olingan natijalarga ko'ra, respondentlarning 10-nafari tasvirlarni to'g'ri topdilar. 25 nafari esa xatoliklarga yo'l qo'ydilar. 15 nafari esa tasvirlarni, umuman tushunmaganligini e'tirof etdilar. Bundan ko'rinadiki, talabalarining psixologiya fanidan olgan bilimlari va turmushdagi psixologik bilimlarining uyg'unligi 50 nafar qatnashuvchidan 20% da to'la shakllangan deya olamiz, kolganlarida esa bu jarayonni qisman va shakllanmaganligini e'tirof etish mumkin. Ya'ni ularda nasalar va obrazlarni idrok qilish, illyuzion figuralarni anglash va uni ifoda etishda bir muncha qiyinchiliklar tug'ildi. SHuningdek, Rubin figuralari asosida olib borgan tadqiqotlarimiz natijalarida ham talabalarining idrok qilish jarayoni, bilimlarni anglashda egallangan bilimlar va tashqi psixologik ta'sirlarning o'rni alohida o'rin tutishi

aniqlandi. Olingan natijalar quyidagi tartibda tahlil etildi.

Birinchi bosqich talabalarida nazorat guruxidagilar berilgan topshiriqlarni tajriba boshida rasmlarda aks etgan figura va tasvirlarni to'liq topa olmadilar. Tajriba boshida 35% idrok etgan bo'lsalar, tajriba oxirida psixolog yordami bilan 65% idrok qilishga erishildi.

Tajriba yakunida esa ularga esperimentator tomonidan berilgan yordam asosida qisman topishga muvaffaq bo'ldilar

### 2.2.1-jadval

| Figuralar       | 1 figura                |               | 2 figura                |               | 3 figura                |               | 4 figura                |               |
|-----------------|-------------------------|---------------|-------------------------|---------------|-------------------------|---------------|-------------------------|---------------|
|                 | Tajriba boshidagi xolat | Tajriba oxiri | Tajriba boshidagi xolat | Tajriba oxiri | Tajriba boshidagi xolat | Tajriba oxiri | Tajriba boshidagi xolat | Tajriba oxiri |
| Tajriba guruhi  | 2/1                     | 2/2           | 3/1                     | 3/2           | 7/3                     | 7/6           | 2/1                     | 2/2           |
| Nazorat guruhi. | 2/1                     | 2/1           | 3/2                     | 3/2           | 7/1                     | 7/4           | 2/1                     | 2/1           |

### 3-bosqich talabalarida idrok qilish va anglash jarayonining natijalari


### 2.2.2-jadval

| Figuralar      | 1 figura                |               | 2 figura                |               | 3 figura                |               | 4 figura                |               |
|----------------|-------------------------|---------------|-------------------------|---------------|-------------------------|---------------|-------------------------|---------------|
|                | tajriba boshidagi xolat | Tajriba oxiri | tajriba boshidagi xolat | Tajriba oxiri | tajriba boshidagi xolat | Tajriba oxiri | tajriba boshidagi xolat | Tajriba oxiri |
| Tajriba guruhi | 2/1                     | 2/2           | 3/1                     | 3/3           | 7/3                     | 7/7           | 2/1                     | 2/2           |
| Nazorat guruhi | 2/1                     | 2/2           | 3/1                     | 3/1           | 7/2                     | 7/5           | 2/1                     | 2/1           |
| Umumiy natija  | 50%                     | 100%          | 50%                     | 90%           | 50%                     | 90%           | 50%                     | 90%           |



2.3.7-rasm


Ushbu rasmda ham avvalgi rasmda bo'lgani kabi ikki kishi tasvirlangan. Biri – yosh qiz. Uni biz rasmning oq foniga e'tibor berib ko'rishimiz mumkin. Ikkinchisi – keksa ayol. Uni esa qora shakllarga qarab payqay olamiz. Tekshiriluvchilar bir qarashda rasmdagi bitta fonni idrok etgan bo'lsalar, bir necha daqiqadan so'ng diqqat bilan qaraganlari natijasida oq va qora fondagi rasmlarni idrok qila oldilar.



### 2.3.8-rasm

Ushbu rasmda psixologiyada juda mashhur bo'lgan tasvirlardan biri ifodalangan. Uning siri oddiy. Agar diqqatimiz markazidagi oq rangli shaklga qaratilsa, kimdir ajoyib guldonna, yana ba'zilar oddiy ko'zani ko'rishi mumkin. Bordi-yu, diqqatimiz qora fonga qaratilsa, u yerda biz bir-biriga tikilib turgan ikki kishining yuzini ko'ramiz.

Unda ikkita qora profil oq fonda berilgan. Bir qarashda ayrimlar bu rasmlarga qarab, «Bu - vaza» deb atasa, boshqalar uni bir-biriga qarab turgan ikki kishi yuzining yon tomondan ko'rinishi, deb ta'riflashi mumkin. SHunisi xarakterliki, birinchi marta shu rasmni ko'rgan odam uni yaxlit idrok qilib, nima ekanligini tushunishga harakat qiladi, lekin biror figurani ko'rgach, ma'lum vaqtgacha boshqasini ko'rmasligi ham mumkin. Agar shu idrok darajasi qolsa, ya'ni yana nimanidir ko'rishni xoxlamasa, u ikkinchi figurani ko'rmasligi ham mumkin. Bu bizdagi idrok jarayonlarining faolligimizga, ob'ektga munosabatimizga bevosita bog'liqligini ko'rsatib turibdi. Ikkinchidan, idrok bizning qayfiyatimizga ham bog'liq.



### 2.3.9-rasm

Agar diqqatimiz rasmning oq rangli foniga qaratilsa, tasvirda erkak kishining yuzini, agar rasmning qora rangli shakllariga qaratilsa, masqaraboz (V), shilliqurt (G), it (J), qush (E) va tik turgan odamning (B) shamoyilini ko'ramiz. E'tibor bering oq fonda kishi yuzidan tashqari mavjud bo'lgan ob'ektlar (baliqcha (D), sichqon (A)) qora rangli ob'ektlarga nisbatan kechroq payqab olinadi.




2.3.10-rasm.

Agar diqqat bilan rasmning qora rangli shakllariga qarasak, biz chap tomonga nigox tashlagan hindyning tasvirini ko'ramiz. Rasmdagi qora rangli shakllar oq fonga hajman kichikroq bo'lgani sababli biz, eng avvalo, aynan hindu tasvirini ko'rib turibmiz. Agar diqqatimizni shaklga nisbatan hajman kattaroq bo'lgan oq fonga qaratsak (bu biroz qiyin bo'lishi tabiiy), rasmda bizga orqasi bilan o'girilib turgan shimol xalqlaridan biri (deylik eskimoslar)ning vakili yoki shunchaki sovug'ida qalin kiyingan kishining tasvirini ko'rishimiz mumkin. Tajriba 3 bosqich talabalarida olib borilganda ularning ko'rsatqichlari yuqori bo'lganini guvohi bo'ldik. Yani xar ikkala gurux ishtirokchilari berilgan topshiriqlarni to'la yechishga harakat qildilar. Bu jarayonda ularga boshlang'ich psixologik tushunchalar haqida xabardorligi ijobiy natijalarga erishishga asos bo'ldi. Chunki 3-bosqich talabalarida albatta psixologiyadan dastlabki tushunchalarni mustaxkamlash imkoniyatlari o'quv jarayonida tashkil etilgan. Ularda psixologik bilimlarni mazmun-mohiyatini anglash shakllana boshlagan. Bu tajriba natijalarida o'z aksini topdi.

3.2.3-jadval

**Psixologik bilimlarni 1 va 3 bosqich talabalarini tomonidan anglash darajalari ijtimoi-psixologik so'rovnomalarning natijalari.**

| Kurs   | Talabalar |      |          |      |          |      |            |      |
|--------|-----------|------|----------|------|----------|------|------------|------|
|        | Birinchi  |      | Ikkinchi |      | Uchinchi |      | To'rtinchi |      |
|        | n         | %    | n        | %    | N        | %    | n          | %    |
| 1 kurs | 36        | 38,7 | 31       | 33,3 | 26       | 28,0 | 0          | 0,0  |
| 2 kurs | 11        | 12,1 | 16       | 17,6 | 40       | 43,9 | 24         | 26,4 |
| 3 kurs | 9         | 10,1 | 22       | 24,7 | 49       | 55,1 | 9          | 10,1 |
| Jami   | 115       | 25,4 | 90       | 19,9 | 190      | 41,9 | 58         | 12,8 |



**Talabalarning psixologik savodxonlik darajasi.**

(yil boshida va yil oxirida)

Talbalarning psixologik savodxonligi ushbu diogrammada aks etishicha, yil boshida psixologik tushuncha va bilimlarni egallashlari past ko'rsatkichlarga ega bo'lgan bo'lsa, yil ohirida, tashkil etilgan turli zamonaviy usullar yordami o'tkazilgan o'quv mashg'ulotlari, psixotreninglar, mustaqil ta'limni tashkil etish natijasida bu ko'rsatkichlar yuqori darajada bo'lganini ko'rsatdi.

Bilimlarni motivatsion komponentlari oliy o'quv yurti ta'limida bir muncha o'zgaradi. Ya'ni bunda yangi fanlar bilan tanishish yangi muxit va gurux a'zolarining psixologik ta'siri dastlab o'quv faoliyatini pasaytiradi. Lekin ularda kasbiy ko'nikmalarning shakllanishi oshib boradi. Bu bizning olib borgan tajribalarimiz natijalarida isbotlandi.

Xulosa va tavsiyalar.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki pedagoglar ta'siri o'z o'zidan pasayib borish natijasida, talabalarning mustaqil faolligi rivojlanadi va o'z-o'zini boshqarish faoliyati rivojlanadi, bu jarayonlarning barchasi talabalar o'quv faoliyatidagi bilimlarni anglashning o'ziga xosligini ko'rsatadi.

O'z-o'zini anglash davomida talabalar yuqori o'zlashtirish imkoniyatlarini anglab yetadi. Ya'ni o'quv jarayonlarining o'zgarishi talabalar faolligiga ijobiy ta'sir etadi. Bu esa ularning bilimlarni anglashda bilish faolligini oshiradi. Talabalarning o'quv faoliyati tuzilishi o'zaro xamkorlik natijalariga asoslanadi. O'quv faoliyatining psixologik tuzilishi talabalar faolligini o'zaro munosabat motivlari asosida shakllanadi. Bunday xolatlarni o'z o'zini boshqarish elementlari sifatida anglash zarur. Demak talabalar o'quv faoliyatida bilimlarni anglash o'z o'zini boshqarish natijalarida yuzaga keladi va bevosita o'quv faolligini ta'minlaydi. O'quv faoliyatidagi o'quv motivlarining ta'siri barcha komponentlar rivojlanishini ta'minlaydi.

Talabalar psixologik bilimlarini anglash xolatlari yuqori differentsial integrativ ko'rsatkich va past integrativ differentsial ko'rsatkichlar o'quv faoliyatining psixologik tuzilishini asoslab beradi.

Bunga biz o'tkazgan tajriba natijalarida amin bo'ldik. SHuningdek psixologiya fanlarini o'qitish nafaqat oliy ta'lim tizimida, balki ta'limning quyi qismlarida xam (maktabning yuqori sinf o'quvchilariga psixologiyaning boshlang'ich tushunchalarini o'rgatish bo'yicha kurslar tashkil etish maktab ixtiyoridagi soatlar hisobidan, kasb xunar kollejlarning barcha turlariga psixologiya darslarini soatlari bo'yicha o'quv rejalariga kiritish, va darslarni zamonaviy innavatsion texnologiyalar asosida mutaxassislar tomonidan o'tilishini ta'minlash) psixologiya fanini kiritish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Uni amalga oshirishda o'qituvchining kasbiy mahorati ta'lim oluvchilarning egallashi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish metodikasi, ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'zaro munosabati kabilar ishlab chiqilgan.

Psixologiya fanlarini o'qitishda talabalar bilish faolligini oshirish usullaridan kengroq foydalanish. bunda asosan talabalarni ilmiy manbalar va terminlar izoxli lug'atlardan foydalanish ko'nimasini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Foydalangan adabiyotlar:

Arziqulov D.N. Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari.: Avtoref. dis. ... psihol. fan. nomzodi. - Toshkent: O'zMU. 2002. - 22 b.

Герасимова В.С. Методика преподавания психологии: Курс лекций. М.: Ось-89, 2004. 111 с.

Дубровина. И.В. "Руководство практического психолога". М.: Академия, 2000г.

Tolipov O'., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005.– 213 b.

Farberman B.L., Musina R.T., Jumaboeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. – T.: 2002.